

Mevali o'simliklar anor va bodomning shifobaxsh xususiyatlari va madaniy ahamiyati

Jaloliddin Jamoliddin-o'g'li Raxmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Aziza Oybek-qizi Razzoqova

a_razzoqova@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mevali o'simliklarning inson salomatligi va madaniy merosdagi roli keng qamrovli tarzda o'rganilgan. Maqolada anor va bodom mevalarining biologik faol komponentlari, ularning farmakologik ta'siri hamda ilmiy va xalq tabobatida qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, o'simliklarning o'zbek xalq amaliy san'atidagi ramziy ifodasi - "anorgul" va "bodom guli" naqshlari orqali ularning madaniy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mevali dorivor o'simliklar, anor, bodom, farmakologik ta'sir, xalq tabobati, amaliy san'at, ramziy naqshlar

Fruit-bearing plants medicinal properties and cultural significance of pomegranate and almond

Jaloliddin Jamoliddin-o'g'li Rakhmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Aziza Oybek-qizi Razzoqova

a_razzoqova@gmail.com

Institute of Biochemistry, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: This article provides a comprehensive study of the role of fruit-bearing plants in human health and cultural heritage. The biological active components of pomegranate and almond fruits, their pharmacological effects, and their applications in both scientific medicine and traditional folk medicine are analyzed. In addition, the cultural significance of these plants is revealed through their symbolic representation in Uzbek folk applied art, particularly in the motifs known as "*anorgul*" (pomegranate flower) and "*bodom guli*" (almond blossom).

Keywords: medicinal fruit plants, pomegranate, almond, pharmacological effects, traditional medicine, applied arts, ornamental motifs

Bugungi kunda tabiiy dorivor manbalarga bo'lgan talabning ortishi o'simliklarni tibbiy, biologik va madaniy nuqtai nazardan kompleks o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. O'simliklar insoniyat hayotida qadimdan oziq-ovqat, shifo manbai va estetik qadriyat sifatida ahamiyat kasb etgan. Tarixiy manbalarda dorivor o'simliklardan foydalanish insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlanganligi qayd etilgan [1].

Sharq tabobatining buyuk olimlari, xususan Abu Ali ibn Sino, o'z asarlarida mevali o'simliklarning dorivor xususiyatlarini ilmiy asosda bayon qilgan [1], [2]. Shuning bilan birga, mazkur o'simliklar xalq madaniyati va amaliy san'atida ham muhim ramziy mazmunga ega.

Mevali o'simliklar biologik va farmakologik ahamiyatga ega. Mevali o'simliklar tarkibida vitaminlar, flavonoidlar, fenolik birikmalar, organik kislotalar va turli mineral elementlar mavjud bo'lib, ular inson organizmida moddalar almashinuvi va immun tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi [4].

Tabiiy dorivor vositalar yuqori biologik moslashuvchanlikka ega va nojo'ya ta'sirlar nisbatan kamroq bo'ladi.

O'zbekiston florasida yuzlab mevali va dorivor o'simlik turlari uchraydi. Ularni farmatsevtika sanoatida xomashyo sifatida va xalq tabobatida qo'llash imkoniyatlari kengdir [2], [3]. Masalan, anor (*Punica granatum*) shifobaxsh va madaniy ahamiyatiga ega. (1-2 rasm).



1-rasm. Anor o'simligning guli



2-rasm. Anor o'simligning mevasi

Anor biologik faol komponentlarga boy bo'lib, tarkibida askorbin kislotalari, taninlar, organik kislotalar va kuchli antioksidantlar mavjud [4]. Bu moddalar yallig'lanishga qarshi, antimikrob va umumiy mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sino anor po'stlog'ini oshqozon-ichak kasalliklarida samarali vosita sifatida tavsiya qilgan [1].

Qadimda xalq tabobatida anor shifobaxsh xususiyatlarini saqlash maqsadida turli usullardan foydalangan. Mevalar uy shiftiga, omborlarda esa yog'ochga ip bilan osilgan holda sovuq va qorong'i joyda uzoq muddat saqlangan.

Mevalar odatda sovuq va qorong'i joyda g'ovakli sopol idishlar (kulchalar)da saqlangan, sharbat yoki siropi esa havo o'tmaydigan shisha yoki sopol ko'zachalarda

joylashtirilgan. Quruq urug'lari va butun mevalar ba'zan yog'och sandiq yoki chelaklarda saqlanib, zararkunandalardan himoyalangan. Bunday saqlash usullari mahsulotning ta'mi, tarkibidagi foydali moddalar va shifobaxsh xususiyatlarini uzoq muddat saqlashga imkon bergan. Shu bilan birga, qadimiy tabobatchilar idish materiali va saqlash sharoitining dorivorlikka bevosita ta'sir qilishini ham yaxshi bilgan. Shuningdek, anor o'zbek xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atida ham muhim o'rin egallaydi. Ingichka novdalaridan turli xil savatlar va maishiy buyumlar to'qiladi. O'zbek xalq amaliy san'atida anor shaklida ishlangan islamiy naqsh "anorgul" nomi bilan mashhur bo'lib, u naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik, kashtachilik va boshqa bezak san'ati turlarida qo'llaniladi. "Anorgul" naqshi baraka, farovonlik va hayotiylik ramzi sifatida talqin etiladi.

O'zbekistonda o'sadigan mevali va dorivor o'simlik bodomning ham (*Prunus amygdalus*) shifobaxsh va ramziy xususiyatlari mavjud.(3-4 rasm).



3-rasm. Bodom o'simligining guli



4-rasm. Bodom o'simligining mevasi

Bodom tarkibida yog'lar, oqsillar, E vitamini va mikroelementlar mavjud bo'lib, u yurak-qon tomir, asab va nafas tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5]. Xalq tabobatida bodom mag'zi quvvat beruvchi vosita sifatida, bodom moyi esa yo'tal va astma kabi kasalliklarda ishlatiladi [6].

Bodom urug'lari shifobaxsh xususiyatlarini saqlash uchun quruq va qorong'i joyda saqlangan. Ko'pincha ular sopol yoki yog'och idishlarda joylashtirilgan va ba'zan paxta yoki qog'oz bilan o'ralgan holda saqlangan. Bu usul bodomning yog'li tarkibini, ta'mini va dorivor xususiyatlarini uzoq muddat saqlashga yordam bergan. Qadimgi xalq tabobatida bodomni to'g'ri saqlash usullari uning turli kasalliklarda shifobaxsh vosita sifatida samarali qo'llanishini ta'minlagan.

Bodom shaklidagi islamiy naqsh esa "bodom guli" yoki "guli bodom" nomi bilan mashhur. U kulolchilik, zargarlik, naqqoshlik, kashtachilik, do'ppido'zlik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik va matochilikda keng qo'llaniladi. Xalq an'analarida bodom baxt, iqbol va farovonlik ramzi sifatida qadrlanadi.

Xulosa qilib aytganda anor va bodom mevali dorivor o'simliklar sifatida yuqori farmakologik qiymatga va boy madaniy-estetik mazmunga ham ega. Ularning biologik

faol moddalari ilmiy jihatdan asoslangan va xalq tabobati tajribasi bilan uyg'unlashgan holda samarali natijalar beradi.

Shu munosabat bilan, mevali dorivor o'simliklardan samarali foydalanishni yanada takomillashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Jumladan, mevali dorivor o'simliklarni nafaqat farmakologik, balki ularning madaniy va estetik ahamiyatini ham inobatga olgan holda kompleks tarzda o'rganish zarur. Bu yondashuv dorivor xomashyolarning biologik xususiyatlarini chuqurroq anglash bilan birga, ularning xalq madaniyatidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, anor va bodom asosida tayyorlanadigan fitopreparatlarni ishlab chiqish va ularni amaliy tibbiyotga joriy etish hajmini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq ramziy naqshlarni madaniy meros sifatida tizimli o'rganish va ilmiy jihatdan hujjatlashtirish milliy qadriyatlarni asrash va targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, farmatsiya va madaniyatshunoslik ta'lim yo'nalishlarida integrativ yondashuvni kuchaytirish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliy va madaniy komponentlar bilan uyg'unlashtirish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. II kitob. — Toshkent. Fan. 1982.
2. Xolmatov X.X., Habibov Z.X. O'zbekiston shifobaxsh o'simliklari. — Toshkent. Meditsina. 1976.
3. Sobirov R., Xolmatov X.X. Xorazm viloyatining dorivor o'simliklari. — Toshkent. Meditsina. 1972.
4. Nabiev M. Shifobaxsh o'simliklar. — Toshkent. Meditsina. 1989.
5. Нуралиев Ю. Лекарственные растения. — Душанбе. Маориф. 1989.
6. Хайдаров К. Лечебные растения Таджикистана. — Душанбе. Ирфон. 1989.